

H.NURMATOV, N.NORXO‘JAYEV

MUSIQA

1-SINF UCHUN DARSLIK

Qayta ishlangan 16-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018

Mas'ul muharrir **Q.Ma'mirov** — TDPU professori

T a q r i z c h i l a r :

G.Ualiyeva — Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi TSHXTX-QTMOXM “Amaliy fanlar va mакtabdan tashqari ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi;

R.Xudoyorova — Toshkent shahar Sirg‘ali tumani 272-umumta’lim maktabining musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi;

Z.Ishmuratova — Toshkent shahar Sirg‘ali tumani 300-umumta’lim maktabining musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi.

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

Nurmatov H., Norxo‘jayev N.

Musiqa: 1-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 16-nashri. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 64 b.

I. Muallifdosh.

UO'K 78 (075)
KBK 85.31ya71

© H. Nurmatov, N. Norxo‘jayev
© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2018

ISBN 978-9943-5215-4-4





BIZ YOQTIRGAN KUYLAR

HAR BIR QO'SHIQNI OVOZDA
KUYLASH VA TURLI CHOLG'ULARDA
CHALISH MUMKIN.

Tinglaymiz

DO'LONCHA

Xalq kuyi

O'ynoqi



QO‘SHIQ AYTISH QOIDALARI

Qo‘sinqni to‘g‘ri ijro etish uchun uni diqqat bilan tinglab olish lozim.

Qo‘sinqni qomatni rostlagan holdatik turib yoki o‘tirib aytish kerak.

Qo‘sinq aytishdan oldin shoshilmasdan nafas olish va yelkalarni ko‘tarmaslik kerak.

So‘z o‘rtasida nafas olmang.

Qo‘sinqda so‘zlar aniq eshitilishi uchun unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish kerak.

Qo‘sinq aytganda tovushingiz yengil va chiroyli eshitilsin. Tovushlarni cho‘zib aytning.

Qo‘sinqni ifodali, tinglovchilarga yo-qimli qilib aytish kerak.

Qo‘sinqni o‘qituvchining qo‘l harakatlariga qarab aytishga o‘rganing.

Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

AZIZ BO'STON – O'ZBEKISTON

M.Mirzo she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Bu dunyoda chamanlar ko‘p,
Bu dunyoda Vatanlar ko‘p.
Barchasida yashnar gullar,
Barchasida yayrar dillar.

N a q a r o t :

Mening uchun aziz bo‘ston –
O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Chorlar ezgu yo‘llar meni,
Ajdodlarim qo‘llar meni.
Bu Vatanda to‘kmasman yosh,
Bu Vatanda egmasman bosh.

N a q a r o t



AU DEGANDA TOVUSH PAST-DAN YUQORIGA CHIQADI.

TOVUSHLARNI TO‘G‘RI TALAFFUZ QILISHNI O‘RGANAMIZ



A



U



O



I



Ye



MILLIY CHOLG'ULAR BILAN TANISHAMIZ

Tinglaymiz

«Raqs» kuyini tinglang.

O'rtacha tez



Xalq kuyi



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

OLMA

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Olmani qarang,
Olmani qarang,
Yuzlari tarang.

Shoxda qaltirar,
Shoxda qaltirar,
Rangi yaltirar.


Ketmas uzilib,
Ketmas uzilib,
Turar tizilib.

Kim olma yesa,
Kim olma yesa,
Maza-yu maza!



MILLIY CHOLG'ULAR BILAN TANISHING

DOIRA



NOG'ORA



TINGLAYMIZ, O'RGANAMIZ


Tinglaymiz YURISH MARSHI

F.Nazarov musiqasi

Jadal



Ayting-chi, koptokchalar qaysi chiziqlarda joylashgan?



**Ota-onangiz, aka-opalaringiz
yordamida yodlang**


O'QISHNI BILIB OLSANG

M.Yusupov she'ri **M.Dadaboyev** musiqasi

O'qishni bilib olsang
Juda yaxshi o'zingga.
Bolday shira kiradi
Har bir aytgan so'zingga.

Kitoblar kulib boqar
Sho'x, o'ynoqi ko'zingga.
Gullar poyandoz bo'lar
Bosgan har bir izingga.

O'qimishli kishilar
Aqllidir, donodir.
O'qib bilimli bo'lsang,
Barcha ishing a'lodir.



QANDAY TOVUSHLARNI BILASIZ?

Shovqinli tovushlar



Musiqiy tovushlar



Atrofimizda tovushlar juda ko‘p. Tabiatdagi barcha tovushlar shovqinli tovushlarga kiradi.

Qo‘sish qurashda va cholg‘u sozlarini chalishda yangraydigan ma’lum bir balandlikka ega bo‘lgan tovushlar musiqiy tovushlar deyiladi.



BIZ YOQTIRGAN QO'SHIQLAR

Tinglaymiz va raqsga
tushamiz

ANDIJON POLKASI

Xalq kuyi

Sho'x

Musical notation for 'Sho'x' in three staves. The first staff starts with a treble clef, a key signature of one sharp, and a 2/4 time signature. The second staff starts with a treble clef and a key signature of one sharp. The third staff starts with a treble clef and a key signature of one sharp.



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

SALOM BERGAN BOLALAR

P.Mo'min she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Salom bergen bolaning
O'zi odobli,
Kulib turgan yuzlari
Go'yo oftobli.


N a q a r o t :
Salom berish, bu –
A'lo alomat,
Salom bergenlar,
Bo'ling salomat.

Salom bergen bolaning
Darsi doim «besh»,
Maktab, uyda, ko'chada
Yaxshilarga esh.

N a q a r o t



MUSIQIY TOVUSHLAR YUQORI, PAST VA BIR TEKIS BALANDLIKDA BO'LADI.



MUSIQALI O'YINLAR

OQ TERAKMI, KO'K TERAK?

X.Qayumov she'ri

Sho'x

A.Mansurov musiqasi



Musical notation for the first line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

Oq te-rak- mi, ko'k te- rak, biz-dan siz-ga kim ke- rak?



Musical notation for the second line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

O'-qi-shi, i- shi a'- lo, G'ay-rat-li,chaqqon,do-no.



Musical notation for the third line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

Kat-ta-lar-ning dast-yo-ri, Ki-chik-lar-ning sar-do-ri,



Musical notation for the fourth line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

O-dob,ax-loq-da o'r-nak,quv-noq bo-la-lar ke- rak.



Musical notation for the fifth line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

Oq te-rak- mi, ko'k te- rak, biz-dan siz-ga kim ke-rak?



Musical notation for the sixth line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

Oq te- rak-mi, ko'k te-rak, biz-dan siz-gakim kerak?



Musical notation for the seventh line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

Quv-noq bo- la- lar ke- rak,



Musical notation for the eighth line of the song, featuring a treble clef, a key signature of two sharps, and a 4/4 time signature. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

i-noq bo- la- lar ke- rak.

**QO'SHIQ AYTGANDA SO'ZLARNING
ANIQ VA TUSHUNARLI BO'LISHIGA
E'TIBOR QILING.**

**Ota-onangiz, aka-opalaringiz
yordamida yodlang**

AYIQPOLVONLAR BOG'CHASI


H.Muhammad she'ri

T.Toshmatov musiqasi

Bizning o'rmon-bog'chamiz,
Daraxtzor-u keng o'tloq.
Qo'l ushlashib barchamiz,
Qo'shiq kuylaymiz quvnoq,
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u,
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u.

Ayni peshin chog'ida,
O'rmonning quchog'ida.
O'tirvolib to'nkaga,
Asal qo'yib o'rtaga
Maza qilib yalaymiz,
Turib yana o'ynaymiz,
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u,
g'u-g'u, g'u-g'u-g'u.

Musiqa tovushlari nota bilan yoziladi.
Notalar yoziladigan beshta chiziqqa
NOTA YO‘LI deyiladi.



Ayting-chi, o‘quvchi qanday
cholg‘uda chalmoqda?



TINGLAYMIZ, RAQSGA TUSHAMIZ

**Musiqani tinglab, unga
chapak bilan jo'r bo'lamiz.**

QARI NAVO

Sho'x

O'zbek xalq kuyi

The musical score for "QARI NAVO" (O'zbek xalq kuyi) is arranged for the instrument "Sho'x". The score is written on four staves of music in 2/4 time, with a key signature of one sharp. The notes are primarily eighth and sixteenth notes. The music features a repetitive pattern of eighth-note pairs followed by sixteenth-note pairs, with occasional rests and dynamic markings like "p" (piano).



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

ALIFBO BAYRAMI

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

- | | |
|---|---|
| 1. Alifboden
Harflarni
Biz o'rgandik
oz-ozdan.
Minnatdormiz
O'rgatuvchi
Muallimdan –
ustozdan. | 2. Har bir harf
Daftarlarda
Gijinglaydi
toy bo'lib.
Yozganimiz
Ko'rinati
Yulduz bo'lib,
oy bo'lib. |
|---|---|

Naqarot:

Tilimizni
Sayratadi
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni
Yayratadi
Bayramlarning
xurrami.

Naqarot

3. Oldimizga
Saf tortishdi
Askarlarday harflar.
Barchasiga
Qo'shiqlarda
Berib o'tdik ta'riflar.

Naqarot





SKRIPKA KALITI

Skripka kalitining aylanma qismi nota yo'lining ikkinchi chizig'ini qamrab oladi. Ikkinchi chiziqqa SOL tovushi yoziladi. Bu kalit SOL kaliti deb ham ataladi. Skripka kalitini chiroyli yozishga o'rganing.



MUSIQANING SEHRLI OLAMI

Tinglaymiz

SARBOZCHA (BUXORCHA)

O'zbek xalq kuyi

Jadal

The musical score consists of five staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a 2/4 time signature. The second staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a 4/4 time signature. The third staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a 4/4 time signature. The fourth staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a 4/4 time signature. The fifth staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a 4/4 time signature. The music features various note values including eighth and sixteenth notes, and rests. The notation is typical of traditional Uzbek folk music.



Kompozitor mu-siqa bastalaydi.



Shoir she'r yozadi.



Xonanda qo'shiq kuylaydi.



Sozanda kuy chaladi.

MUSIQALI O'YINLAR VA RAQSLAR

Tinglaymiz

ASP BO'LAMAN

O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi

The musical score consists of four staves of music for piano, arranged vertically. The top staff shows the treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a common time signature (indicated by '8'). The dynamic 'mf' is written above the first measure. The second staff shows the bass clef, a key signature of one sharp (F#), and a common time signature. The third staff shows the treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a common time signature. The fourth staff shows the bass clef, a key signature of one sharp (F#), and a common time signature. The music features traditional Uzbek folk rhythms and harmonies.

QO'SHIQ AYTGANDA SO'ZLARNING ANIQ VA TUSHUNARLI BO'LISHIGA E'TIBOR QILING.

**Ota-onangiz, aka-opalaringiz
yordamida yodlang**

BIRINCHI QOR

R.Tolib she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Ey qor, shodsan buncha ham,
Axir erib ketasan.
Voy, voy, voy, voy.

Men sizlarga bir olam
Quyonch berib ketaman.
Hoy, hoy, hoy, hoy.



Mustahkamlash uchun topshiriqlar

Diqqat bilan tinglang va toping:

O'qituvchi quyidagi ikki misoldan qaysi birini aytdi?





Sol kaliti qayerda to'g'ri yozilgan?

1

2

3



Sol notasi qayerda to'g'ri yozilgan?

1

2

3



QO'SHIQLAR OLAMIGA SAYOHAT

**QO'SHIQ SO'Z VA OHANGLARDAN
IBORAT. SO'Z HARFLAR BILAN,
OHANG ESA NOTALAR BILAN
YOZILADI.**

Musiqa tinglang **PIANINO**

M.Zaynitdinova she'ri
J.Najmuddinov musiqasi

O'ynoqi



Do,re, mi, fa, sol,lya,si mak-tab pi- a- ni- no- si.
Kla- vi- shi oq-qo-ra ha- va-sing ke-lar qa- ra.

Bir, ikki, uch, o'ng oyoq,
Ohangga soling qulqoq.
Yangroq kuyga jo'r bo'lib
Qo'shiq aytamiz quvnoq.



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

NEVARALAR QO‘SHIG‘I

S.Barnoyev she’ri **N.Norxo‘jayev** musiqasi


Bog‘im bor, gulzoram bor,
Bosh bog‘boni bobomlar.
Shirin so‘zli, beozor
Mehribonim momolar.

Naqarot:
Nevara, evara, chevaramiz,
Bizlar uyning chevarimiz.


Ostonamiz muqaddas,
Ahil ota-onamlar.
Oftob nuri tugamas,
Havas qilar odamlar.

Niyatimiz pok, nurli,
Shundan bizlar g‘ururli.
Bobo, momolar bilan,
Yashash qanday sururli!

**MUSIQADAGI TOVUSHLAR QUYIDAGI
NOMLAR BILAN YURITILADI:
DO—RE—MI—FA—SOL—LYA—SI.**



**TOVUSHQATORLARNING YUQORILASHIB
VA PASTLASHIB BORISHI**



RAQS OLAMIGA SAYOHAT

Tinglaymiz

DOIRA USULLARI

O'ynoqi

Musical notation for 'O'ynoqi' in 6/8 time. The notation consists of three staves of music. The first staff starts with a quarter note followed by eighth notes. The second staff starts with a half note followed by eighth notes. The third staff starts with a half note followed by eighth notes.

Xalq kuyi



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

CHILDIRMA

P.Mo'min she'ri


D.Omonullayeva musiqasi

O'zi oyday,
Ziraklari shildir-shildir.
Chalganingda
Ohanglari xilma-xildir.


Topsang darrov bildirma,
bildirma, bildirma.
Gumbadagum-gumbadagum,
gumbadagum,
Uning nomi – childirma!



TOVUSHLAR BALAND-PASTLIGINI ZINACHALAR IFODASIDA TASVIRLANG.



Tovushlar nomini chapdan o'ngga va o'ngdan chapga qarab aytishga o'rGANING.



MUSIQA BIZNING HAYOTIMIZDA

Tinglaymiz CHAMANDA GUL

O'zbek xalq qo'shig'i

Tezroq

Cha-man-dagul o- chi-lib-di (ya) chak-kang-gataq,
chak-kang-ga! Cha-man-dagul o- chi- lib- di (ya)
chak- kang- ga taq, chak-kang- ga. Qo-shing-ni qo-
ra- qil- gan (ey) Bog'-da- gi o's- ma- mi- kan (ey!)
Cha-man-da gul o- chi- lib- di (ya) chak-kang- ga taq,
chak-kang-ga! Cha-man-dagul o- chi- lib- di (ya)...

Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

GULLOLA


M.Oqilova she'ri **Ilyos Akbarov** musiqasi

Biz bahorda chiqamiz
Dalalarga, bog'larga.
Gullolalar ochilgan
Ko'm-ko'k maysazorlarda.

Dalalarda ochildi
Gunafshalar, lolalar.
Bizga uchib kelishdi
Mayna, bulbul, sa'valar.

Bir tomonda lolalar,
Quvnab terar bolalar.
Bir tomonda qushchalar
Bizni qutlab sayrashar.





KAPALAK

Tinglaymiz

Z.Diyor she'ri

S.Boboyev musiqasi

Hoy gul emgan kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Seni ko'rdim bog'chamda,
Meni qilding jonsarak.

Uchrataman har kuni
Seni go'zal bog'chamda,
So'rib gullar bargini
O'tirasan olchamda.

Borib ushlay deganda
Shoshib qolib uchasan.
Sira tutqich bermasdan
Guldan – gulga ko'chasan.



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

DILOROMNING QO'SHIG'I

I.Donish she'ri D.Omonullayeva musiqasi

Quvnoq, xushovoz
Jajji Dilorom.
Qo'shig'i dilga
Baxsh etar orom.





Ayam va dadam
Bo'lsinlar bardam,
Dunyo turguncha
Tursinlar har dam.



Butun nota



=



Butun notani butun mevalarga
o'xshatish mumkin.



MUSIQA TOVUSHLARI

Tinglaymiz

QUYONIM

O‘zbek xalq o‘yini

Shoshilmay

Qu- yo- nim, qu- yo- nim, ni- ma bo‘l- di,
Ka- sal- ga o‘x- shab o‘- ti- rib- san?
Tur o‘r- ning- dan, o‘y- nab ber,
Xoh- la- ga- ning- ni tan- lab ber.

Quyonim, quyonim, nima bo‘ldi,
Kasalga o‘xshab o‘tiribsan?
Tur o‘rningdan, o‘ynab ber,
Xohlaganiningni tanlab ber.



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang **SEHRLI DUNYO**

H.Ahmedova she'ri

X.Hasanova musiqasi


Dilda orzular,
Kuylaymiz jo'shib.
Quvonch, shodlikni
Kuylarga qo'shib.
Bolalik guldir
Bu go'zal chamanda.
Yashaymiz yayrab
Eng baxtli Vatanda.

N a q a r o t :

Kuylar olam
Sochib ziyo.
Chorlar har dam
Bu sehrli dunyo.



Yarim nota



Butunning ikkidan biri yarim bo'ladi.



**Olma o'rtasidan bo'linsa, ikkita
teng yarim palla hosil bo'ladi.**

MUSIQANING SEHRLI OLAMI

Tinglaymiz

BOBOQ XO'ROZ

P.Mo'min she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi
Sho'x

The musical score consists of five staves of music. The first four staves are in 2/4 time with a key signature of one sharp, while the fifth staff is in common time. The lyrics are written below each staff.

Bo-boq xo'-roz, bo-boq xo'-roz, To- ji qi- zil
ta-roq xo'-roz. Bo-boq xo'-roz, bo-boq xo'-roz,
To- ji qi- zil ta-roq xo'-roz.

Du- mi ga- jak, yu- rar ser-gak,

Du-mi ga-jak, yu- rar ser-gak, Xo'p ke-lish-gan,

bo'-yi da- roz, Bo-boq xo'-roz...

Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

SHUDRING

Qambar Ota she'ri **N. Norxo'jayev** musiqasi

Qatra-qatra mitti jonsan,
Himmati zo'r pahlavonsan.
Tunda changni quvib chiqding,
Maysalarni yuvib chiqding.

Naqarot:

Olmos shudring, tolmas shudring.
Shudring, shudring.

Har bir qatrang sehrga kon,
Muruvvat-u mehrga kon.
Senda aksin ko'rар jahon,
Tizimlaring marjon-marjon.


Naqarot:

Olmos shudring, tolmas shudring.
Shudring, shudring.

Chorak nota



Butunning to'rtdan biri chorak bo'ladi.



Qovunni to'rtga bo'lsak, har
bir bo'lagi chorak bo'ladi.



KOMPOZITORLAR – BOLALARGA

Tinglaymiz

LAVLAGI

P. Mo'min

she'ri

O'rtacha tez

D. Omonullayeva

musiqasi



Lav-la-gi-yu, lav- la-gi, yer-ni as- ta kav- la-gin.



Mo'l bo'-lib-di ho- si- li, a'-lo e-kan qı- zi- li.



Lo- la-gao'x- shar, qip-qi- zil ran- gi.

1. 2.



Xud-di bo'-yal-gan-day yap- yan- gi... gi.

Lavlagi-yu, lavlagi,
Yerni asta kavlagin.
Mo'l bo'libdi hosili,
A'lo ekan qizili.

Lolaga o'xshar,
Qip-qizil rangi.
Xuddi bo'yalganday
Yap-yangi.


Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

BUG‘DOY


R. Tolib she’ri D. Omonullayeva musiqasi

Ekkan edim,
Ko‘kat bo‘ldi, don bo‘ldi.
Pishgandan so‘ng
Oppoqqina non bo‘ldi.


Elim boy, elim boy,
Nimaga boy?
Elim boy, elim boy,
Ekar bug‘doy.



Nimchorak nota




Butunning sakkizdan biri nimchorak bo‘ladi.



Tarvuzni sakkizga bo‘lsak, har bir bo‘lagi nimchorak bo‘ladi.

Notalarning nomlarini aytin



Notalarning bo'linishi yodingizdami?



Bular qanday cho'zimdagi nota va tovushlar?



Bu tovushqatorda yetmayotgan tovushni ovoz bilan
aytib to'ldiriring:



KOMPOZITORLAR



**TO'LQIN
TOSHMATOV**



**G'AFUR
QODIROV**



**DONI
ZOKIROV**




**FATTOH
NAZAROV**

REBUS



Quyidagi so‘zlarni aniqlang:

– vruq	– kord	– sol	– rzand			
– ist	venti - tor	– gir	– vul			
– no	– chqon	Gu-	Mi-			
– rosat	– nora	– zavor	– ston			



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR


1. «DO» notasini toping.





2. Tovushqatori to‘g‘ri yozilgan javobni toping?

- A) do, re, mi, sol, fa, lya, si, do;
- B) do, mi, re, fa, sol, lya, si, do;
- C) do, re, mi, fa, sol, lya, si, do;

3. «FA» notasini toping.




4. Eng baland tovushni toping:



O'zingiz toping

1. Musiqa asarini qanday tinglash kerak?
A) sekinroq gaplashib tinglash kerak;
B) to'polon qilmasdan tinglash kerak;
D) jim o'tirib, diqqat bilan tinglash kerak.
2. Butun notaning ichida nechta yarim nota bor?
A) 4 ta yarim nota bor;
B) 2 ta yarim nota bor;
D) 6 ta yarim nota bor.
3. Nechta chorak nota bir butun notaga teng?
A) 2 ta chorak nota;
B) 8 ta chorak nota;
D) 4 ta chorak nota.
4. Nechta chorak nota yarim notaga teng?
A) 4 ta chorak nota;
B) 2 ta chorak nota;
D) 8 ta chorak nota.
5. Tovushqatorida qanday nota tushirib qoldirilgan?



O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik SHUDRING

Qambar Ota she'ri
N. Norxo'jayev musiqasi

Shoshmasdan

Musical notation for "Shoshmasdan" in 2/4 time. The lyrics are:

Qat- ra- qat- ra mit- ti jon- san, Him- ma- ti zo'r
pah- la- von- san. Tun-da chang-ni qu- vib chiq-ding,
May-sa-lar- ni yu-vib chiq-ding. Ol-mos shud-ring,
Tol-mas shud- ring... shud-ring, shud- ring.

OLMA

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

O'ynoqi

Musical notation for "O'ynoqi" in 6/8 time. The lyrics are:




Ol- ma- ni qarang, Ol- ma- ni qarang, yuz-la- ri ta- rang.
Shoxda qal- ti- rar, shoxda qal- ti- rar, ran- gi yal- ti- rar.



CHILDIRMA

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Sho'x



CHITTIGUL

G'. G'ulom she'ri
O'ynoqi

Xalq kuyi

Tosh- xon qiz o'- zi - o'- zi,
ma do'- zi. Bo- shi- da yo'r-
Hay - yu chit- ti- gul.

O'QISHNI BILIB OLSANG

M. Yusupov she'ri **M. Dadaboyev** musiqasi
Tezroq

O'qishni bi- lib ol-sang Judayax-shi o'zing-ga.
Bol-day shira ki- ra- di Har bir aytgan so'-zing-ga.
Kitoblar ku-lib bo-qar Sho'x,o'ynoqi ko'zingga.
Gul-lar po-yan-
doz bo'- lar Bos-gan har bir i- zing - ga.

AYIQPOLVONLAR BOG'CHASI

H. Muhammad she'ri T. Toshmatov musiqasi

O'rta

Biz-ning o'r-mon - bog'-cha-miz Da- raxt - zo - ru
keng o't- loq. Qo'l ush-la-shib, bar-chamiz Qo'-shiq kuy lay-

[1.] [2.]

miz quv- noq. miz - quv- noq. g'u - g'u,
g'u - g'u - g'u, g'u - g'u, g'u - g'u - g'u.

ALIFBO BAYRAMI

P. Mo'min she'ri D. Omonullayeva musiqasi

Tez

A-lif-bo-dan harf-lar ni, biz o'r-gan-dik oz-oz-dan. Min-nat-dor-miz o'r-ga-tuv-chi
mu-al-lim-dan us-toz-dan Ti-li-miz-ni say-ra-ta-di
a-lif-bo-miz bay-ra-mi

f

Di- li- miz- ni yay-ra-ta -di Bay- ram-lar- ning

Tamomlash uchun

xur- ra- mi. Bay- ram-lar- ning xur-ra- mi.

NEVARALAR QO'SHIG'I

S.Barnoyev she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Tez

Bo-g'im bor, gul-zo-rim bor,

Bosh bog'boni bobomlar. Shi-rin so'z-li, be-o-zor Meh-ri-bo-nim

f Na qarot:

mo-mom-lar. Ne-va-ra, e- va- ra, che-va- ra- - miz,
biz- lar uy-ning che- va- ri - miz, che -va- ri - - miz.

SEHRLI DUNYO

H. Ahmedova she'ri

X. Hasanova musiqasi

O'rta

Dil- da or- zu- lar, kuy- lay- Miz jo'- shib.

Qu- vonch, shod- lik- ni kuy- lar- ga qo'- shib.

bo- la- lik gul- dir Bu go'- zal cha- man- da.

Ya- shay- Miz yay- rab eng baxt- li Va- tan- da.

Kuy- lar o- lam so- chib zi- yo. Chor- lar har dam bu

se- hr- li dun- yo... Se- hr- li dun- yo.

BIRINCHI QOR

R. Tolib she'ri

Shohmasdan

N. Norxo'jayev musiqasi

Ey qor, shod- san bun- cha ham,

A- xir e- rib ke- ta- san, voy, voy, voy

Mensiz- lar- ga bir o- lam qu- vonch be- rib ke-

ta- man, hoy, hoy, hoy,

AZIZ BO'STON – O'ZBEKISTON

M. Mirzo she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

Shoshmasdan

Bu dun-yo da cha-man-lar ko'p bu dun-yo da
Va-tan-lar ko'p Bar-cha-si-da yash-nar gul-lar
bar-cha-si-da yay-rar-dil-lar
Me-ning-u-chun a-ziz-bo's-ton
O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton! O'z-be-kis-ton!

BUG'DOY

R. Tolib she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

Shoshmasdan

Ek-kan e-dim, ko'-kat bo'l-di, don bo'l-di, donbo'l-di
Pish-gan-dan so'ng op-poq-qi-na non bo'l-di, non bo'l-di
E-lim boy, E-lim boy, ni-ma-ga boy?
E-lim boy, E-lim boy, e-kar bug'doy.

MUNDARIJA

Do'loncha. Xalq kuyi	5
Qo'shiq aytish qoidalari	6
Aziz bo'ston – O'zbekiston. M.Mirzo she'ri, D.Omonullayeva musiqasi..	7
Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganamiz	8
Olma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	10
Milliy cholg'ular bilan tanishing.....	11
Yurish marshi. F.Nazarov musiqasi	12
O'qishni bilib olsang. M.Yusupov she'ri, M.Dadaboyev musiqasi.....	13
Qanday tovushlarni bilasiz?.....	14
Andijon polkasi. Xalq kuyi	15
Salom bergen bolalar. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	16
Musiqiy tovushlar yuqori, past va bir tekis balandlikda bo'ladi	17
Oq terakmi, ko'k terak? X.Qayumov she'ri, A.Mansurov musiqasi	18
Ayiqpolvonlar bog'chasi. H.Muhammad she'ri, T.Toshmatov musiqasi ..	19
Qari navo. O'zbek xalq kuyi	21
Alifbo bayrami. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	22
Skripka kaliti	23
Sarbozcha (Buxorcha). O'zbek xalq kuyi	24
Tanishing	25
Asp bo'laman. O'zbek xalq kuyi.....	26
Birinchi qor. R.Tolib she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	27
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	28
Pianino. M.Zayniddinova she'ri, J.Najmiddinov musiqasi	29
Neveralar qo'shig'i. S. Barnoyev she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	30
Musiqadagi tovushlar quyidagi nomlar bilan yuritiladi: DO - RE - MI - FA - SOL - LYA - SI	31
Doira usullari xalq kuyi	32
Childirma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	33
Tovushqator baland-pastligini zinachalar ifodasida tasvirlang	34
Chamanda gul. O'zbek xalq qo'shig'i.....	36
Gullola. M.Oqilova she'ri, Ilyos Akbarov musiqasi.....	37
Kapalak. Z. Diyor she'ri, S. Boboyev musiqasi	39
Diloromning qo'shig'i. I. Donish she'ri, D. Omonullayeva musiqasi	40
Tovushlarning uzun-qisqaligi. Butun nota	41
Quyonim. O'zbek xalq o'yini.....	42
Sehrli dunyo. H.Ahmedova she'ri, X.Hasanova musiqasi	43
Yarim nota	44
Boboq xo'roz. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	45
Shudring. Qambar Ota she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	46
Chorak nota	47
Lavlagi. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	48
Bug'doy. R.Tolib she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	49
Nimchorak nota	50
Kompozitorlar	52
Rebus	53
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	54
O'zingiz toping	55
O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik.....	56

HAMIDULLA NURMATOV, NADIM NORXO'JAYEV

MUSIQA

1-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 16-nashri

Muharrir *M.Abralova*

Rassomlar: *A.Donets, E.Zokirov*

Badiiy muharrir *Sh.Mirfayozov*

Texnik muharrir *X.Xasanova*

Musahihh *D.To'ychiyeva*

Kompyuterda tayyorlovchi *B.Tuxtarov*

Nashriyot litsenziyası AI № 290. 04.11.2016.

2018-yil 9-aprelda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x100 1/₁₆.
Kegli 18 shponli. Pragmatic garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

5,16 shartli bosma toboq. 6,5 nashr tobog'i.
514274 nusxada bosildi. 188 raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

www.gglit.uz info@gglit.uz